

## KOMPYUTER SAVODXONLIGINI O‘RGANISH BOSQICHLARI

**Xurramov Shohboz Xurram o‘gli**

TATU Qarshi filiali, talaba

[shohboztuit@gmail.com](mailto:shohboztuit@gmail.com)

**Shokirov Shoxrux Husen o‘gli**

TATU Qarshi filiali, talaba

[shoxruxshokirov9@gmail.com](mailto:shoxruxshokirov9@gmail.com)

**Bebutov Jasurbek Jamshid o‘gli**

TATU Qarshi filiali, talaba

[jasurbekbebutov@gmail.com](mailto:jasurbekbebutov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushubu maqolada yoshlarni hozirgi zamon bilan hamnafas yashashi va davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarni to‘g‘ri baholay olish masalalari hamda axborot texnik vositalarini yoshlarimizga salbiy va ijobiy tomonlarini sodda qilib o‘rgatish.*

**Kalit so‘zlar:** *Kompyuter, Driverlar, rufus, Antivirus, arxivlash, MS WORD, MS EXCEL, MS POWERPOINT.*

### Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda fan-texnika sohasida ham ko‘pgina o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi barcha tizimlarga axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi, fan va ta’lim sohasida umumlashgan va ruxsat etilgan ma’lumotlar bazasi paydo bo‘ldi, mamlakat hududida madaniyat, axborot markazlarining keng tarmoqlari paydo bo‘ldi. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019 yildan boshlab beshta muxim tashabbus joriy qilindi. Bu tashabbusning asosiy yo‘nalishlaridan biri yoshlarda kompyuter savotxonligini oshirish yo‘li belgilab qo‘yilgan. Bu xam mamlakatda axborot texnologiyalariga qaratilgan e’tiborni ko‘rsatadi.

### Asosiy qism

Hozirgi yoshlar yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo‘lishga intilmoqda. Uning asosi esa intellekt hisoblanadi. Yuqori suratdagi kompyuter

texnologiyasi taraqqiyoti insoniyat tafakkurida yanada kengaytirilgan sermazzmun ahamiyat kasb etmoda.

Bu maqolada 21-asr axborot asrida zamonaviy texnologiyalarga foydalanish manbai internet va kompyuter savotxonligini o'rganish bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

### **Kompyuter turlari:**

- super kompyuterlar (Super Computer);
- katta kompyuterlar (Mainframe Computer);
- mini kompyuterlar (Minicomputer);
- shaxsiy kompyuterlar (PC-Personal Computer);
- bloknot (Notebook) kompyuterlar.

Kompyuter ikkita ajralmas qismdan tashkil topgan bo'ladi: apparat ta'minoti (hardware) va dasturiy ta'minot (software). Ular o'zaro bog'langan holda yagona uyg'unlikda ishlaydi va muayyan vazifalarni bajaradi. Kompyuterning imkoniyatlarini kengaytiradigan va turli vazifalar bajarishini ta'minlaydigan vosita bu albatta dasturiy ta'minotdir.

Dasturiy ta'minot odatda kompyuterning qattiq diskida saqlanadi va kompyuter yoqilishi bilan maxsus dastur - operatsion sistema ishga tushadi. Dasturiy ta'minot ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. Sistema dasturiy ta'minoti
2. Amaliy dasturiy ta'minot

Sistema dasturiy ta'minotga odatda operatsion sistema va qobiqlar, qo'shimcha dasturiy ta'minotga ega yordamchi vazifalarni bajaradigan har xil dastur va dasturiy majmualar kiradi (masalan, matn muharriri, elektron jadval, grafik dasturlar va hokazo). Dasturiy ta'minotning asosiy guruhlari: - Operatsion sistemalar - kompyuter va foydalanuvchi o'rtasida muloqot o'rnatish, kompyuterni va dasturlarni ishini boshqarish uchun mo'ljallangan. Misollar: MS DOS, Windows XP, Vista, Linux, Unix, OS/2, Mac X va boshqalar. - Matn muharriri - matn kiritish, tahrirlash, saqlash va ochish, chop etish, matnni formatlash kabi vazifalarni bajaradigan dastur. Misollar: MS Word, Lexicon, Wordpad, Notepad va boshqalar. - Elektron jadvallar - jadvalga matn, raqam va formula kabi ma'lumotlar kiritib, ular ustida hisob-kitoblar bajarish, diagrammalar yaratish imkonini beradigan dastur. Misollar: Lotus, MS Excel va boshqalar. - Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi - ma'lumotlarni maxsus jadvallarga kiritib, tartibga solish, kerakli ma'lumotni izlash, ma'lumotlar omborini yaratish kabi vazifalarni bajaradigan dastur. - Antivirus - kompyuterni viruslardan saqlash va himoyalash, qattiq disk, media vositalarni virusga tekshirish va davolash vazifalarini bajaradigan dastur. Misollar: Norton Antivirus, NOD32, McAfee Antivirus, Panda Antivirus, DrWeb, Antivirus Kasperskogo va boshqalar. - Arxivator

- kompyuterdagi ma'lumotlarni ixcham shaklga keltirish, ya'ni arxivga joylashtirish, chiqarish, yangilash kabi vazifalarni bajaradigan dastur. Misollar: ARJ, RAR, ZIP, WinZip, WinAce, WinRAR va hokazo. Natijada dasturni o'chirish ustasi ishga tushadi va ko'rsatmalar berilganidan keyin dasturni o'chiradi.

### **Kurs bosqichlari:**

#### ***1-Bosqich***

- Kompyuterlar tarixi.
- Kompyuter asosiy va yordamchi qurilmalari.
- OT turlari va ishlash maqsadlari.

#### ***2-Bosqich***

- OS lar yozadigan dasturlar va ulardan foydalanish.rufus.win setup from usb.ultra iso.
- Windows O'rnatish xp,7,8,10,11.
- Yangilanishni o'chirish va yoqish. Windows parolini Buzish.Parollash yo'llari.

#### ***3-Bosqich***

- Driverlar haqida malumot va driver dasturlar.
- Qushimcha dasturiy taminotlar va Dasturlar.O'rnatish va o'chirish.
- Disklar bilan ishlash. (C,D,F).HDD,SDD,M2.
- Virtual box.Windows, linux o'rnatish va foydalanish.

#### ***4-Bosqich***

- Ms office dasturlari o'rnatish va o'chirish.
- Windows,office aktivatsiyalash (litsenziyalash).
- Antiverus dasturlar haqida malumot.
- Antivirus o'rnatish, baza qo'yish,offline va onlayn.nod32.O'chirish.

#### ***5-Bosqich***

- Masofadan ishlovchi dasturlardan foydalanish.
- Malumotlarni arxivlash kodlash,tiklash.dasturlar bilan ishlash.
- Qiziqarli dasturlarni o'rnatish va ularni izlash.
- MS WORD dan foydalanishni o'rganish
- MS EXCEL. dan foydalanishni o'rganish
- MS POWERPOINT. dan foydalanishni o'rganish

**ADABIYOTLAR**

1. Qalandarov, V. N., Shoniyofova, Y. Q., Xurramov, S. H., & Turdiyeva, M. A. (2020). *PROBLEMS OF MODERN SOFTWARE AND COMPUTER-ENGINEERING TECHNOLOGIES. In Исследование путей развития научно-технического потенциала общества в стратегическом периоде (pp. 19-20).*
2. Qalandarov, V. N., Sh X. Xurramov, and N. I. Ismatov. "ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF LARAVEL AND YII 2 FRAMEWORK." *МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОСТЬ НАУКИ КАК ФАКТОР ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ* (2019): 32.
3. Qodirov, F. E., D. A. Akbarova, and S. H. Shokirov. "SOFTWARE FOR WORKING WITH COMPUTER GRAPHICS AND THEIR TASKS. APPLICATION OF DIGITAL IMAGE PROCESSING FIELDS." *Инновации в технологиях и образовании: сб. ст. участников XIV Меж: 57.*
4. Qodirov, F. E., O. D. Doniyorov, and Sh H. Shokirov. "BASIC CONCEPTS OF INFORMATION SECURITY IN INFORMATION SYSTEMS. WIDE THREATS AND THEIR CONSEQUENCES." *КОНЦЕПЦИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. 2021.*